

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 161 (1760), 2026-yil 11-avgust, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news




yuz.uz\_news



**Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!**

## ULUG‘ YO‘LGA CHIQQAN SHAVKATLI XALQ BU!



**Qirg‘izistonning O‘sh viloyatida bir og‘aynim bor, ismi Quvunchbek. Yaqinda u bilan ko‘rishib qoldik. Asli suhbat shirin inson emasmi, ancha gaplashib o‘tirdik. U so‘z orasida men mutlaqo kutmagan fikrni aytdi:**

**— Men xalqingizga havas qilaman, — dedi u. — Prezidentingiz zo‘r-da! Odamlar bilan uchrashganda qo‘li doim ko‘ksida turadi, keksalar bilan qo‘shqo‘llab ko‘rishadi. Chehrasi hamisha ochiq. Balki O‘zbekistonning bugungi taraqqiyoti, dunyo tan olayotgan islohotlari, yurtigingizga yog‘ilayotgan xayr-baraka hamda tinch va osuda hayotingizning sababi shundadir, ya‘ni mamlakat rahbarining o‘z eliga cheksiz mehridir.**

Bu gaplar menga qattiq ta‘sir qildi. Bag‘rim sim-sim erib, kipriklarim osti achishdi. Qalbim faxr-iftixorga, g‘ururga to‘ldi. U mening Prezidentim haqida shunday iliq gaplarni gapirdi. Agar Prezident davlatning ramzi ekanini hisobga olsak, Quvunchbek Vatanimning, xalqimning o‘z tasavvuridagi go‘zal suratini ta‘riflab berdi.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining “Do‘rmon” ijod uyida yashayotgan paytlarim edi.

Yozning avvali. Bahavo joy emasmi, bomdoddan so‘ng sayr qilishni yaxshi ko‘radim. Bir kuni endi darvozadan hatlaganimda mehmonxona tomondan keksa jurnalist-yozuvchilarimizdan biri chiqib qoldi-da, meni o‘zi sari chorladi. Borib so‘rashdim.

— Yuring, quyoshning chiqishini tomosha qilamiz, — dedi boladek zavqlanib.

Rozi bo‘ldim. Chunki har kungi sayr onlarimga o‘zgacha ma‘no kirayotgandek edi-da.

Ufqni ko‘rish uchun dov-daraxtdan yiroq, ochiq manzilni topish lozim. Shunday ham qildik. Yeru osmonning cheti xira qizara boshladi. Olam osuda, hatto subhi sodiq qushlari ham sayrashni unutgandek. Butun vujudimizga halovat, zavqu surur, orzumdlik singayotgandek. Ana, tong otmogda! Olloh taolo cheksiz mehr-muhabbati ila bino etgan umidli dunyoda hayot uyg‘onmogda! Tinch, osoyishta va shukhli hayot! Ozod Vatanim

quyoshning — tiriklikning ilk nurlariga yuz tutmogda. Ishoning, bundan go‘zal, bundan hayotbaxsh manzara bo‘lmasa kerak. Ana, o‘shanda ota-bobolarimizning, onamomolarimizning, umuman, xalqimizning har ibodatning adog‘ida, har safar dasturxon yig‘ishtirilayotganda Yaratgandan “Tinchlik-xotirjamlik bergin!” deya duo qilishining chin ma‘nosiga yetgandek bo‘ldim.

Davomi 3-betda

**“Tadbirkorlikni rivojlantirish — biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suyanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham ushbu sohada mujassam. Shu bois, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash markazdan tortib, eng quyi bo‘g‘ingacha — barcha rahbarlarning kundalik vazifasi bo‘lishi shart”, deya ta‘kidlagan edi davlatimiz rahbari.**

## YURT TAYANCHI HAM, SUYANCHI HAM — TADBIRKORLIK

Tadbirkorlar haqidagi ushbu fikr bugungi kunda ishbilarmonlik faoliyatining aholi farovonligi va mamlakat taraqqiyotidagi muhim o‘mi va ahamiyatini aynan ifoda etadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunlardan boshlab ma‘muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiy tizimdan erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tishni o‘z oldiga strategik maqsad qilib qo‘ydi. Bu transformatsiya jarayonida xususiy mulkchilik va tadbirkorlik subyektlarini siyosiy-huquqiy jihatdan himoya qilish hamda ularga qulay shart-sharoitlar yaratish vazifasi belgilandi.

Sobiq ittifoq davrida xususiy mulkchilik va xususiy tadbirkorlik qonunan ta‘qiqlangan va mafkuraviy jihatdan butunlay inkor etilgan edi. Iqtisodiyot to‘liq davlat nazorati va rejali tizimga

asoslangani bois, xususiy mulkka ega bo‘lish qonun yo‘li bilan cheklab qo‘yilgandi.

Shu sabab yangi davlatchilikning ilk kunlaridanoq xususiy sektorni shakllantirish va fuqarolarning iqtisodiy faolligini huquqiy jihatdan kafolatlash masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. O‘tgan 35 yil davomida O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o‘ziga xos siyosiy-huquqiy modeli shakllandi. Mustaqillik yillarida tadbirkorlik sohasi nafaqat yalpi ichki mahsulot hajmini shakllantiruvchi asosiy kuchga, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta‘minlovchi hamda xalqaro maydondagi nufuzini belgilab beruvchi strategik drayverga aylanib ulgurd.

Davomi 4-betda

## MAHALLAGA SANOAT KIRMOQDA

### Chiqindidan eksportbop mahsulot

Keyingi yillarda tadbirkorlik bilan bog‘liq an‘analar rivojlanib, taraqqiy etib borayotgani bois, tashabbuslar ham har jihatdan qo‘llab-quvvatlanib, tajribalar ommalashyapti. Endilikda chekka qishloq va mahallalarda ham istiqbolli sanoat loyihalari ishga tushirilib, aholi farovonligi ortib bormogda.

Uchko‘prik tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘inlarida bu boradagi ibratli tajriba va tashabbuslar keng ommalashyapti. Natijada mahalliy xomashyodan tayyor va yarim tayyor sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshib, eksport geografiyasi kengaymogda. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, joriy yilda 442,5 million dollar xorijiy investitsiya o‘zlashtiriladi. Bu o‘tgan yildagidan deyarli 1,5 barobar ko‘p.

Investitsiyaning asosiy qismi sanoat yo‘nalishida ishga tushirilayotgan loyihalar hissasiga to‘g‘ri keladi.

“Dafa Fiber” qo‘shma korxonasida sun‘iy sintefon tolalar ishlab chiqariladi. Bu yerda 8 million dollar xorijiy investitsiya o‘zlashtirilib, 80 ta doimiy ish o‘rni yaratildi.

Davomi 2-betda



### Munosabat

Mamlakatimizda “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan ezgu tamoyil barcha islohotlarning bosh mezoniga aylandi. Bugun yurtimizda qabul qilinayotgan har bir qaror, har bir dastur va islohot markazida inson huquq va manfaatlari, turmush sharoitini yanada yaxshilash kabi ezgu maqsadlar mujassam. Zotan, kuchli davlatning haqiqiy qiyofasi aholi, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga yaratilayotgan sharoit, ularning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan sa‘y-harakatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

## YANADA SHAFFOF VA SAMARALI MEXANIZMLAR

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish, aholiga davlat xizmatlarini yanada yaqinlashtirish, ko‘makka muhtojlarni manzilli qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning amaliy ahamiyati shundaki, ular faqat moddiy yordam berishni ko‘zda tutmaydi. Asosiy e‘tibor insonni mushkul vaziyatdan olib chiqish, imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun zarur shart-sharoit yaratishga qaratilgan.

Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbarining alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni ta‘lim va ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olish, muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, imtiyozli transport xizmatlarini raqamlashtirishga qaratilgan tashabbuslar taqdimoti bilan tanishgani bu borada boshlangan ishlarni yangi bosqichga olib chiqadi. E‘tiborli tomoni, taqdimotda taklif etilayotgan yangi mexanizmlar ijtimoiy himoya tizimini yanada manzilli, shaffof va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Yangi tizimning muhim jihati shundaki, endi fuqaro yordam izlab idorama-idora yurmaydi. Aksincha, davlat xizmatlari odamlar yashaydigan mahallaga, ularning xonadoniga kirib boradi. Bu yondashuv muammoning oqibatini bartaraf etishdan ko‘ra, uni erta aniqlash va o‘z vaqtida manzilli ko‘mak ko‘rsatishga asoslangan. Natijada ijtimoiy himoya faqat murojaatga javob berish tizimi emas, balki inson hayotida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarning salbiy ta‘sirini kamaytirishga xizmat qiladigan samarali mexanizimga aylanmogda.

Amalda oshirilayotgan islohotlar samarasi raqamlarda ham yaqqol aks etmogda. Agar bir necha yil avval aholiga 23 turdagi ijtimoiy xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, bugun ularning soni 140 taga yetdi. Bu shunchaki statistik ko‘rsatkich emas, balki davlat tomonidan odamlar ehtiyojiga nisbatan yondashuv tubdan o‘zgarayotganining amaliy ifodasidir. Har yili o‘rtacha 4,6 milliondan ortiq ijtimoiy xizmat ko‘rsatilayotgani tizimning qamrovi tobora kengayib, samaradorligi ortib borayotganidan dalolat.

Davomi 2-betda

## MEHNATGA HURMAT, KASBGA EHTIROM HAMDA YOSHLARGA ISHONCH IFODASI



### Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari

Dunyo miqyosida texnologiyalar jadal rivojlanmogda. Ishlab chiqarish jarayoni takomillashtirib, shunga monand yangi kasblar paydo bo‘lmogda. Bunday sharoitda raqobatbardosh, tez moslashuvchan va eng zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan mutaxassislarni tayyorlash, yoshlarning amaliy bilim va ko‘nikmalarini oshirish har qachongidan ham muhim. Negaki zamonaviy iqtisodiyotga faqat diplomga ega bo‘lgan emas, balki o‘z ishini puxta biladigan, yangilikka intiladigan, muammolarga ijodiy yondasha oladigan mutaxassislar kerak.



Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, mamlakatimizda kasbiy ta‘lim tizimini rivojlantirish, professional ta‘lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, yoshlarni zamonaviy kasblarga tayyorlash borasida keng ko‘lamli ishlar qilinmogda. Jumladan, yoshlarni kasb-hunarga qiziqitirish, malakali o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash va ularning mehnat bozorida munosib o‘rin egallashiga ko‘maklashishga qaratilgan “Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” kasbiy mahorat milliy tanlovining tashkil etilishi katta ijtimoiy ahamiyatga ega tashabbus bo‘ldi. Joriy yil ilk bor o‘tkazilgan ushbu tanlov yoshlarning nafaqat bilim va ko‘nikmalarini namoyish etishi, balki o‘z kasbiga munosabatini yanada mustahkamlashi, mehnat orqali yuksak marallarga erishish mumkinligini anglashiga xizmat qilishi nazarda tutilgan.

Davomi 5-betda



### Obod manzillar



## JARANGLAB OCHILGAN OLTIN SANDIQLAR

Munosabat

YANADA SHAFFOF VA SAMARALI MEXANIZMLAR

Boshlanishi 1-betda

Ijtimoiy xizmatlarning aynan mahalla tizimi orqali tashkil etilayotganida ham ma’no bor. Ya’ni mahalla har bir xonadonning ahvolidan xabardor, qaysi oila qo’llab-quvvatlashga muhtojligi, qaysi keksaning parvarishiga ehtiyoji borligi yoki qaysi bolaga ta’lim va ijtimoiy xizmatlar zarurligini boshqalardan ko’ra yaxshiroq biladi. Shu ma’noda, mahalla nafaqat aholini birlashtiruvchi ijtimoiy tuzilma, balki davlatning insonparvarlik siyosatini hayotga tatbiq etuvchi noyob institutga aylanmoqda.

Taqdimotda alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar masalasiga urg’u berilgani ham bejiz emas. Zero, har qanday davlatning taraqqiyoti yoki jamiyatning ma’naviy kamoloti, eng avvalo, uning ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlar, ayniqsa, bolalarga munosabati bilan o’lchanadi. Chunki har bir bola jismoniy yoki funksional imkoniyatlaridan qat’i nazar, bilim olish, o’z iqtidorini ro’yobga chiqarish va jamiyatda munosib o’rin egallash huquqiga ega.

Bugun mamlakatimizda nogironligi bo’lgan 168 mingdan ortiq bola istiqomat qiladi. Keyingi yillarda ularni ta’limga qamrab olish borasida sezilarli ishlar qilindi. Zamonaviy inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirishga qaratilgan keng ko’lamli islohotlar boshlandi. Shunga qaramay, hali ham qariyb 35 ming bolaning ta’lim jarayonidan chetda qolayotgani bu sohada qilinishi lozim bo’lgan ishlar ko’pligini ko’rsatadi. Bu raqamlar ortida orzu-umid bilan yashayotgan, bilim olishga intilayotgan, ammo turli to’siqlar tufayli o’z imkoniyatini to’la namoyon eta olmayotgan minglab bolalar taqdiri turibdi.

Shu bois, mazkur masalaga faqat ta’lim sohasining vazifasi sifatida emas, balki butun jamiyatning umumiy mas’uliyati sifatida yondashish to’g’ri bo’ladi. Binobarin, har bir bolaning ta’lim olish huquqini ta’minlash, kelajagiga sarmoya kiritish bilimli, mustaqil va faol fuqaroni tarbiyalash demakdir. Inklyuziv ta’limni rivojlantirish esa faqat imkoniyati cheklangan bolalar uchun emas, balki bag’rikenglik, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillari qaror topgan jamiyatni barpo etish yo’lidagi muhim qadam.

Har bir bola mamlakatimiz kelajagidir. Shu bois, uning sifatli ta’lim olishi va qobiliyatini ro’yobga chiqarishi davlat siyosatidagi eng muhim vazifalardan biri bo’lishi lozim. Ana shu hayotiy tamoyildan kelib chiqib, har bir bola bilan “oilabay” ishlash tizimining joriy etilishi ayni muddao. Shu orqali bolaning ehtiyojlari erta aniqlanib, sog’lig’i, funksional imkoniyatlari va rivojlanish darajasi kompleks baholanadi hamda unga mos ta’lim va ijtimoiy xizmatlar tashkil etiladi. Eng muhimi, mazkur yondashuv har bir bolaning imkoniyati va



**Chorvachilik va parrandachilik qishloq xo’jaligining eng muhim, serdoramad va istiqbolli tarmoqlaridan biri. Ularning izchil rivoji mamlakatimizd oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, bozorlarimizda go’sht, sut, tuxum va boshqa mahsulotlar mo’l-ko’ligini oshirish, mahsulotlar narxi barqarorligini saqlashga munosib hissa qo’shadi. Ayniqsa, qishloq joylarda chorvachilik va parrandachilik aholi bandligini ta’minlash, oilalarga barqaror daromad va ro’zg’or farovonligi olib kirishda muhim o’rin tutadi.**

So’nggi yillarda chorvachilik tarmog’ini jadal rivojlantirish, xalqimizni arzon va sifatli go’sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, sanoat usulida qayta ishlash hajmini oshirish hamda ularning turlarini kengaytirish bo’yicha keng ko’lamli o’zgarishlarga qo’l urildi. Oxirgi o’n yilda tarmoqda katta yamg’irlanishlar bo’ldi. Ko’p yillab yechilmay, fermerlarni tashvishga solib kelgan muammolar qisqa fursatda hal etildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda aholi soni barqaror o’sishi va turizm oqimi tobora

kengayib borayotgani oziq-ovqat mahsulotlari, xususan, go’sht mahsulotlariga talabni yanada oshirmoqda. Hozirgi kunda go’shtga yillik talab 2 million 150 ming tonnani, ishlab chiqarish hajmi esa 1 million 600 ming tonnani tashkil etyapti. Mavjud talabni to’liq qondirish uchun esa go’shimcha ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish bugun har qachongidan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimizning chorvachilik va parrandachilik tarmoqlarini rivojlantirish, go’sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarishni

**Imtiyozli transport xizmatlarini raqamlashtirishga qaratilgan tashabbuslar esa ijtimoiy himoya sohasiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish yo’lidagi muhim qadam bo’ladi. Bu orqali xizmatlardan foydalanishda inson omili ishtiroki qisqaradi, ortiqcha qog’ozbozlik barham topadi. Imtiyozlar haqiqiy ehtiyojmandlarga tez va shaffof yetkaziladi.**

Tashabbus qanot yozdi

MAHALLAGA SANOAT KIRMOQDA

CHIQINDIDAN EKSPORTBOP MAHSULOT

**Tadbirkorlik loyihalarini boshlamoqchi bo’lgan tashabbuskorlarni har jihatdan qo’llab-quvvatlab, imtiyozli kreditlar olishga ko’maklashyapmiz. O’tgan yili mahalla tadbirkorlari uchun 523 million so’m kredit ajratilgan bo’lsa, bu yil miqdor ikki hissa oshmoqda. Ishsizlik barham topgandan keyin jinoyatchilik va huquqbuzarliklar, ajralishlar ham keskin kamaydi.**

Boshlanishi 1-betda

Ikkilamchi xomashyo, asosan, poliesterdan tayyorlanayotgan mahsulotlardan qishki kurtka va paltolar, ko’rpa va yostiqlar, yumshoq o’yinchoqlar, mebel ishlab chiqarishda keng foydalaniladi. U yengil, issiqni yaxshi ushlaydi, namlikni kam shimadi, narxi ham arzon. Ilgari bu xomashyo to’liq xorijdan keltirilardi.

Yangi loyiha uzoq yillar saqlanib turuvchi chiqindi hisoblangan plastik idishlarni qayta ishlash, ko’plab sohalar uchun zarur bo’lgan xomashyo ishlab chiqarishi bilan ajralib turadi, — deydi korxona rahbari Ahror Xayrullayev. — Ayni kunda yiliga 5 ming tonna sintefon ishlab chiqarish quvvatiga chiqish harakatidamiz. Kelgusi yildan mahsulot hajmi va turlarini ko’paytirish, qo’shimcha ish o’rinlari yaratish borasida yangi quvvatlarni ishga tushirishga hozirlik ko’rtyapmiz.

Qo’li-qo’liga tegmay mehnat qilayotgan yigit-qizlarni subhatga tortamiz. Ularning aksariyatini ishsiz, mehnat migratsiyasidan qaytgan yoshlar tashkil etadi.

Mahallamizga yaqin hududda yangi korxona tashkil etilganidan xabar topib, ishga kelganman, — deydi Abbosjon Rahimov. — Xorijda ham ishlab ko’rganman. Lekin bu qadar erkin va qulay sharoitlar yo’q edi. Dam olish kunlari ham bizdan ishlashni talab

qilishardi. Bu yerda hamma narsa o’z o’rnida. Har kim mehnatiga yarasha haq oladi. O’z vaqtida dam olamiz, ishga kelib-ketish



uchun transport xizmati yo’lga qo’yilgan. Bayramlarda qo’shimcha rag’batlar berilyapti, maoshimizni vaqtida olamiz. Muhimi,

ota-onam, oilam bag’ridaman. Kamtarona mehnatim bilan yurtimiz ravnaqiga hissa qo’shayotganimdan quvonaman.

Guvillab, bir maromda ishlab turgan uskunalarda chiqindi sifatidagi plastik idishlar maydalanib, maxsus ishlov berilgach, mayingina sintefonga aylanadi. Ular presslash uskunalarida qadoqlanib, eksport uchun tayyorlanayapti. Korxona mas’ullarining aytishicha, mahsulotning 80 foizi Rossiya, Tojikiston, Qirg’iziston kabi davlatlarga eksport qilinmoqda.

“Chorbog” mahalla fuqarolar yig’ini bir necha yil avval biror sohaga ixtisoslashmagan, ishsizlik avj olgan hudud edi. Qishloq ayollari erta tongdan mardikorlikka odanar, erkaklar bekorchilikdan bezor edi. Mahallada tug’ilib

Tadbirkor dastlab o’z xonadonida shunday stullar chiqara boshladi. Keyin mahalladoshlariga ham o’rgatdi. Qarabsizki, bir yilga qolmay, butun qishloq ratan mebellar ishlab chiqarishga ixtisoslashib ketdi.

Mahallamizdagi 15 dan ortiq xonadonda ratan mebellar ishlab chiqariladi, — deydi mahalla fuqarolar yig’inidagi hokim yordamchisi Lazizjon Shodmonov. — Halinchak, osma stul, oynali stol, plyaj o’rindig’i, tebranma o’rindiq kabi 30 turdagi mahsulot tayyorlanayapti. Mahallamiz ishsizlikdan xoli hududga aylangan. Mavsumda qo’shni mahallalardan ham yollanma ishchilar jalb qilinadi. Tadbirkorlik loyihalarini boshlamoqchi bo’lgan tashabbuskorlarni har jihatdan qo’llab-quvvatlab, imtiyozli kreditlar olishga ko’maklashyapmiz. O’tgan yili mahalla tadbirkorlari uchun 523 million so’m kredit ajratilgan bo’lsa, bu yil miqdor ikki hissa oshmoqda. Ishsizlik barham topgandan keyin jinoyatchilik va huquqbuzarliklar, ajralishlar ham keskin kamaydi.

Mahsulot ishlab chiqarishda asosiy xomashyo mahalliy metall quvurlar hisoblanadi. O’ladagi erkaklar temir buyumlar, prujina, bolt-gayka yasash, payvandlash, kavsharlash, sun’iy ratan ishlab chiqarish bilan mashg’ul bo’lsa, xotin-qizlar buyumlarga ratan o’rash, bezash yumushlari bilan band.

Chekka qishloqlarda zamonaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi desa, yaqiniga aslo ishonmasdik, — deydi Ozodbek Mirzayev. — Chunki sanoat faqat shaharlarga mos tarmoq hisoblangan. Qishloqlarda faqat paxta, g’alla yetishtirilardi. Endi hammasi o’zgardi, ishlayman degana barcha sharoit bor. Bizning oilada o’g’lim bilan men payvandlash, shakl chiqarish ishlarini qilamiz, ayolim, kelinlarim ratan iplar tayyorlash, jihozlar yasash bilan shug’ullanadi. Daromadimiz yaxshi, ro’zg’or kam-ko’stidan o’rttirib, to’ylar qilyapmiz, mashina olyapmiz, farzandlarimiz ish izlab boshqa yoqlarga bormayapti.

Bu yerda mahsulot ishlab chiqarishda o’ziga xos klaster shakllangan. Sun’iy ratan iplar ishlab chiqarish, buyurtmalari qabul qilish, yangi rusumlar ustida ishlash, tayyor buyumlarni ulgurji va chakana sotish, kasanachilik bilan shug’ullanuvchilar kundan kunga ortib bormoqda. Xullas, “talabga ko’ra taklif” tamoyili amalda. Mo’maygina daromad odamlar g’ayratiga g’ayrat qo’shmoqda. Yil sayin tumush tarzi yaxshilanyapti, ko’chalar asfaltlandi, elektr ta’minoti barqaror bo’lishi uchun yangi TP o’rnatildi. Eng muhimi, odamlar dunyoqarashi o’zgargan. Ularda birdamlik, kasb-hunarga mehr, ertangi kunga ishonch hissi yuqori.

**Rasuljon KAMOLOV,**  
“Yangi O’zbekiston” muxbiri

CHORVACHILIK – OZIQ-OVQAT

XAVFSIZLIGINING MUSTAHKAM ASOSI

ko’paytirish hamda sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishishi davomida belgilab berilgan ustuvor vazifalar bu yo’nalishdagi sa’y-harakatlarga yangi sur’at va mazmun bag’ishlaydi.

2026-2028-yillarda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish bo’yicha ishlab chiqilgan kompleks choralar esa tarmoqning mavjud salohiyatini to’liq ro’yobga chiqarish, ishlab chiqarish sur’atlarini jadallashtirish va ichki bozorni sifatli go’sht-sut mahsulotlari bilan barqaror ta’minlashga qaratilgan bilan e’tiborga molik. Eng muhimi, bu chorvachilik xo’jaliklariga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, mahsuldorlik va samaradorlikni oshirish, ozuqa bazasini mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Faoliyati to’xtab qolgan 103 ta chorvachilik korxonasini sog’lomlashtirish, ularning qarzarlari restrukturalizatsiya qilish yoki o’n yilga bo’lib to’lash, ozuqa yetishtirish uchun yer maydonlari ajratish va naslli mollar bilan ta’minlash, eng avvalo, ularning ishlab chiqarish quvvatlarini qayta tiklash va moliyaviy yukini yengillashirishga xizmat qiladi. Natijada 33 ming bosh qoramol parvarishlanib, yiliga 12 ming tonna go’sht va 40 ming tonna sut ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Chorvachilikka ixtisoslashgan 13 ta tumanda 75 ming gektar ozuqa maydonidan samarali foydalanish, kichik chorvachilik loyihalarini



**Odinaxon OTAXONOVA,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo’jaligi masalalari qo’mitasi a’zosi

moliyalashtirish mavjud imkoniyatlarni to’liq ishga solish, ozuqa bazasini mustahkamlash va kichik xo’jaliklar faoliyatiga yangi sur’at bag’ishlaydi. Sut qabul qilish punktlari va ozuqa sotish shoxobchalari tashkil etilishi esa ishlab chiqaruvchi va bozor o’rtasidagi uzviylikni ta’minlab, mahsulot yetishtirish hajmini oshirish, chorvadorlar daromadini ko’paytirish va aholini sifatli sut go’sht mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash uchun qulay sharoit yaratadi.

Xonadonlarda 20 sotix maydonda yengil konstruksiyali 11 mingta molxona qurish va ularda 421 ming bosh qoramol parvarishlash tashabbusi alohida ahamiyatga ega. Bu xonadonlarda chorvachilik madaniyatini yangi bosqichga olib chiqish, qoramol bosh sonini ko’paytirish, go’sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan birga yoshlar bandligini ta’minlash va oilalar farovonligini yuksaltirishga zamin hozirlaydi.

Aholi xonadonlari va chorvachilikka ixtisoslashgan mahallalarni qo’llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgani bejiz emas. Chunki respublikada 191 tumanda 2407 ta chorvachilikka ixtisoslashgan mahalla mavjud bo’lib, ulardagi 823 mingta xonadonda 3,9 million aholi istiqomat qiladi. Ushbu xonadonlarga arzon chorva mollari yetkazib berish, yem-xashak ta’minoti va zooveterinariya xizmatlarini yaxshilash, nasldor buzoqlarni identifikatsiya qilish hamda ular uchun subsidiya ajratilishi chorvachilikni samarali va barqaror yo’lga qo’yish, chorva salomatligini asrash, mahsulot hajmi va sifatini ko’paytirishga yordam beradi. Natijada xonadonlarda chorva bosh soni va mahsuldorlik ortadi, aholi uchun qo’shimcha daromad manbalari yaratiladi.

Naslchilik sohasida 13 ta tumanda har biri 200 bosh qoramolga mo’ljallangan xo’jaliklar tashkil etilishi sohada sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab beradi. Bu orqali nasldor qoramollar soni va mahsuldorligini

oshirish, fermer va dehqon xo’jaliklarini sifatli nasl materiali bilan ta’minlash, go’sht-sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko’paytirish hamda hududlarda yangi ish o’rinlari uchun mustahkam zamin yaratiladi.

O’zbekiston chorvadorlar uyushmasi tashkil etilishi soha vakillarini xursand qildi. Bu sohada faoliyat yuritayotgan fermer va tadbirkorlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash, ularni qiynayotgan muammolari tizimli o’rganish va amaliy yechim topishga ko’maklashishda muhim qadam bo’ladi. Uyushma chorvadorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalash bilan birga naslchilik ishlarini yangi bosqichga olib chiqadi, ilmiy izlanishlar natijalarini amaliyotga keng tatbiq etib, sohada zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni joriy qiladi. Asosiy, bularning barchasi aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo’lgan ehtiyojini qondirish, chorvachilik mahsulotlari eksportini yanada oshirish, narx-navo barqarorligini ta’minlash, pirovardida aholi rozi bo’lishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Parrandachilik aholi dasturxonini go’sht va tuxum kabi mahsulotlar bilan ta’minlashda muhim o’rin tutadi. Ayniqsa, parranda go’shti boshqa ayrim go’sht turlariga nisbatan tezroq yetishtirilishi va keng iste’mol qilinishi bilan ajralib turadi. Uning yana bir muhim jihati ozuqa resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatidir. Asosiy, to’g’ri tashkil etilgan oziqlantirish tizimi orqali kamroq resurs sarflab, ko’proq mahsulot olish mumkin.

Sohada umumiy qiymati 432 million dollar bo’lgan loyihalar amalga oshirilishi, shubhasiz, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mahsulot hajmini ko’paytirishga xizmat qiladi. Natijada parranda go’shti va tuxum bozorida taklif barqarorlashadi, yangi ish o’rinlari yaratilib, sohaning eksport salohiyati oshadi.

Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib,  
yangi hayot va kelajak yaratamiz!

# ULUG' YO'LGA CHIQQAN SHAYKATLI XALQ BU!



Nabi JALOLIDDIN,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi

Boshlanishi 1-betda

Yurt tinchligidan, halovatidan, xotirjamligidan ham qadrliroq narsa bormi jahonda?! Ertalab uyqudan uyg'onding, ko'zlaring quyoshni ko'ryapti, taning sog', oyoq-qo'ling but. Yurtning tinch, mehribon oilang bag'ridasan. Mana-mana, yaqinlaringning birovi ishga, boshqasi o'qishga, bog'chaga o'tanadi. Sen esa ularning duoi jonini qilasan-da, kecha tuzib qo'ygan rejalaringni amalga oshira boshlaysan. Rejang nima ham bo'lardi: bola-chaga, tiriklikning shirin tashvishlari. Bari-bari yaxshilikdan iborat. Orada yurt koriga yarashga ham ulgurasan. Ana shunaqa, halovat — bilgan odamga eziguliklar doysi. Uyida, elida tinchi bo'lmagan inson tushkunlik, jaholat botqog'i ga botib boraveradi — shundan Yaratgan asrasini!

Har kuni ertalab ishga ketarkanman, go'zal manzaraning guvohi bo'laman: bog'chaga borayotgan shirindan-shakar bolakaylar onasi yoki opasining qo'lidin mahkam turganacha yetib yurishga harakat qiladi. Chunki ona-yu opalari ham ish va o'qishdan kech qolmasligi kerak-da. Ammo bolalar buni o'ylaydi deysizmi: yo'l boshlovchilariga chug'ur-chug'ur qilib savollar beradi. Kattalarning esa boshqa tashvishlari ham bor: kecha bog'cha opalari ularga yodlash uchun bergan quvnoq she'rnamni takror-takror aytirishi lozim, to'li esidan chiqmasin. Shu bahona kichikintoylar javobsiz savollaridan chalg'iyyi-da.

Maktab o'quvchilarining ko'rinishi esa boshqacharoq: bir xil ozoda kiyingan, yelkasida sumka. Ular yo'lak bo'ylab borarkan, bir-birini tiknilab, sho'xliklar qiladi, kuladi. Goho bir-birini quvlab, yugurib qoladi. Xullas, butun borliqda baxtli bolalikning sururi va shukuhidan o'zga ma'no yo'q.

Yoz kechalarida shahardagi ko'p qavatli uylar oralab hech kerganmisiz? Agar bunday qilmagan bo'lsangiz, albatta, sinab ko'rishni maslahat beraman. Soat tungi o'n bo'lsa ham bolalar maydonchasidan kichikintoylarning quvnoq qiy-chuvi, zavqli gap-so'zi eshitilaveradi. Uyqu elita boshlagan otalar, ayniqsa, onalar ularni uyga chorlashni qo'ymaydi. Bolalarning bo'lsa, parvoysi falak... Siz bir muddat tin olasiz. Qalbingizni tinch va zavolsiz kun-u tunlar uchun shukronalik, unga tutash baxtiyorlik tuyg'ulari egallaydi.

Bular buyuk va ozod Vatanimizning farabxsh onlaridan kichik halolalar, xolos...

Bundan ikki yilcha oldin Falastinda halok bo'lgan faqat norasidalar soni o'n mingdan oshganini eshitgandim. Naqadar dahshat! Bo'g'izga mislsiz faryod qitilib, na'ra torting keladi: o'n ming bola-ya!.. Endi aytinch, o'sha urush olovini yoqib, deylik, biri g'olibga, ikkinchisi go'yo vatanparvaga aylanayotgan siyosatchilarning yoki qurol turgan boshqa kimsalarning balandparvoz g'oyalari, johilona da'volari, bir go'dakning tomchi qonini qo'yinga, to'kilgan zarra ko'z yoshiga arziydimi?! Aslo yo'q! Chunki bolalar — tiriklik ramzi, ertangi kun umidi, hayotning davomiyligi. Norasidalariga uzilgan o'q kelajakka, umuman, hayotga uzilgan o'qdir!

O'zbek xalqi, butun o'zbekistonliklar bu fikrning mazmun-mohiyatini allaqachon tushunib yetgan. Endi bu el o'zining tinchligiga, baxtli hayotiga birovning daxl qilishiga hech qachon yo'l qo'ymaydi! Chunki xalqning boshida dono rahnamosi turibdi. Bu kungi osuda turmush, halol va fidoyi mehnat asosida yuksalayotgan buniyodkorlik, yorug' istiqbolga sobit ishonch millat yetakchisining buyuk dahosi mahsulidir.

Maktablardan birida o'quvchilar bilan uchrashdim. Meni yozuvchi va urush qatnashchisi deb tanishtirdi. Qiziqarlari va mantikli savol-javoblar bo'ldi, she'rlar o'qildi. Tadbir yakunlangach, bir bolakay yonimga keldi. Yetinchi sinfda o'qirkan.

— Ustoz, urush qanaqa bo'ladi? — deya so'radi.

Bu savol meni qattiq hayajonga soldi. Aslida,

quvontirdi ham. Chunki ona xalqimning urush haqida mutlaqo tasavvuri yo'q yangi avlodi bilan yuzma-yuz turardim. Balki u urush to'g'risida hikoya qiluvchi filmlarni ko'rgandir, kitoblari o'qigandir. Lekin uning nima ekanini, qanday bo'lishini tasavvur etolmagani aniq. Bu yaxshilik alomati edi. Ilohim, yurtimizda urushni bilmaydigan avlodlar ko'payversin!

Albatta, hozirgi tahlikali va ertasi noayon dunyoda Vatan tinchligini saqlash, mustaqilligini asrash, xalq farovonligini ta'minlash, shuningdek, boshqalar bilan mamlakatimiz manfaatidan kelib chiqib muomala qilish oson kechmayapti. Prezidentimiz ta'biri bilan aytsek, kim aslida kim ekanini bilib bo'lmay qoldi. Barcha "o'zim", deydi. Bugun ona Vatanimizga g'arazli niyat bilan qarayotganlarning maqsadini ezu ishlariga yo'naltirish, birodar mamlakatlarning do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlash O'zbekistonning bosh a'moliga aylangan.

"Xalqim manfaatleri men uchun hamma narsadan ustun, — deydi Prezidentimiz. — Men bu yo'lga umrimni, hayotimni tikkanman!".

Bugun bu o'tli e'tirof barchamizning asosiy shiorimizga aylannmog'i lozim.

Odatda odamzod yaxshilikni unchalik payqayvemaaydi. To'g'rirog'i, unga bepisanroq qaraydi. Yomonlikni esa darrov ko'radi va uni unutishi ham qiyin kechadi. Yaxshilikni xotiradan tez ko'tarish yoki unga ko'nikish oddiy hol. Chunki bashar ahlining fe'li shunaqa. Ushbu fikrlarimni davom ettirishdan oldin esimga tushgan bir voqeani aytib bersam.

Andijonning Shahrixon tumanida naqshbandiya tariqati pirlaridan bo'lmish Zuhriddin eshonbuva degan inson yashab o'tgan (2011-yil 2-mart kuni dunyodan ko'z yumgan). Bu tabarruk zot mashhur sobihi irshod shayx Muhammad Sharif Hiyoriy hazratlarining (o'tgan asrning 90-yillarida qariyb yuz yoshda vafot etgan) muridi bo'lib, irshodni o'sha kishidan olgan. Zuhriddin eshonbuva ikkinchi jahon urushi qatnashchisi edi. Gazeta-jurnal o'qishini juda yaxshi ko'rardi. U vodiydagi, xususan, Andijondagi diniy bo'linish va tajovuzlarga qarshi qattiq kurashgan.

Men ham ko'plab ixlosmandlari qatori eshonbuvaning tarbiyasini olib, xizmatida bo'lganman. U umrining oxirlarida aytgan bir gap sira yodimdan chiqmaydi.


— Bosh vazirimizning yuzida nur bor, — degandi eshonbuva. — Shu odam davlat rahbari bo'lsa, xalqimizga chindan qayishadi va inson qadrini ulug'laydi!..



2015-2016-yillarda Vatanimizning ijtimoiy ahvoli barcha oyat og'ir edi. Xalqimiz tom ma'no qiyinalayotgandi. Chunki oylik maosh va nafaqalar plastik karta orqali to'lana boshlagan, lekin savdo joylarida terminallar qariyb yo'q, bankomatlarni esa hatto xayolga ham keltirib bo'lmadi. Xalqning qo'lida naqd pul qolmagandi. Ammo yashash kerak-ku! Esimda, nafaqasi plastik kartaga tushirilgan otaxon va onaxonlar naqd pul olish uchun uzoq-uzoq qishloqlardan viloyat markazidagi banklarga borar, kechgacha navbatda turib, bor-yo'g'i yuz ming so'mgacha naqd pulni ko'lga kiritardi. Horib-charchagan qariyalarning ahvolini endi o'zingiz tasavvur qilavering.

U paytlari tag'in bir toifa ucharlar paydo bo'lgandi: ular yuqoridagi valine'matlari bilan til biriktirib, terminallarga ega chiqardi. Shundoqqina uyida o'tirib, bechora mehnatkashlarning plastik kartasidagi halol maoshining 20-30 foiz qismini o'zlashtirib, naqd pulga aylantirib berardi...

Biroq Olloh bor! U mazlumlarning ohini hamisha eshitgan. Yuqoridagi ishlarga tez orada chek qo'yildi. O'zbekistonda adolat quyoshi porlab, inson qadri ulug'lana boshladi.



2017-yil fevralining o'zidayoq Prezidentimiz topshirig'i bilan Xalq bankining faoliyati asosan nafaqa ta'minotiga yo'naltirildi. Uning barcha bo'limlariga yuzlab zamonaviy avtomobillar ajratilib, nafaqa, pensiya puli onaxon va otaxonlarning mahallasiga, hatto xonadonigacha eltib beriladigan bo'ldi. Endi nafaqaxo'rlar o'z pulini xohlasa naqd oladi yoki ularning ixtiyoriga ko'ra plastik kartasiga o'tkazib beriladi. O'sha yilning o'zidayoq poytaxtimiz va viloyatlar markaziga son-sanoqsiz bankomatlar o'rnatildi hamda bu jarayon haliyom davom etmoqda. Eng muhimi, so'mimiz erkin muomalaga kiritildi. Vatandoshlarimiz chet el valyutasi olish uchun "qorabozor"larda sarg'ayib turmaydigan bo'ldi. Umuman, noqonuniy pul muomalasiga barham berildi. Hozir o'z pulimizni xohlagan bankda, xohlagan chet el valyutasi xohlagancha miqdorda erkin-almashtirishimiz mumkin. Bularning barchasi bir vaqtlar orzu edi, xolos. Shuning uchun ham o'shanda elimiz yangi Prezidentimizni ko'zda yosh bilan duo qilganini xuddi bugun

Insonparvarlikka yo'g'rilgan bunday islohotlar O'zbekistonda tinimsiz davom etmoqda. Ularni sanab, adog'iga yetish mushkul.

Kamina faxriy jangchiman. Shundan kelib chiqib, yurtimizda qilingan ikki olijanob ishini alohida ta'kidlagim keldi: 2019-yil 2-fevral kuni Mustaqillik maydonida 1979-1989-yillarda kechgan mudhish urushda halok bo'lganlar xotirasiga yodgorlik o'rnatildi va ularning nomi yozib qo'yildi. Uzoq yillar unutilib kelgan jasur yigitlarning sha'ni ulug'lanib, adolat qaror topdi.

Qalbimni to'lg'inlantirgan ikkinchi holat esa 2020-yili poytaxtimizda "G'alaba bog'i" barpo etilishi bo'ldi. Ushbu qutlug' maskandagi tarixiy eksponatlar, monument va suratlar, videolavhalar xalqimizning shonli o'tmishidan, fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alabaga qo'shgan ta'rifsi hissasidan hikoyalari so'zlaydi. Aminmanki, janglarda shahid ketgan ota-bobolarimiz va birodarlarimizning pok ruhi ikki savobli ish tufayli shod bo'ldi.

"Yangi O'zbekiston bog'i"ning bunyod qilinishi va unda xalqimizning boy tarixi hamda bugungi yuksalish davri haqida hikoyalari so'zlaguvchi ulkan purnma'no yodgorlik o'rnatilishi ham davlatimiz rahbarining tashabbusi mahsulidir.

Ona Vatanimiz jamoliga boqib, iftixorim osmon qadar yuksaladi. Toshkentda qisqa muddatda qad rostlagan "Tashkent City" ni aytinch: yaqin-yaqingacha uning o'rmda qandaydir pastak, ko'rimsiz imoratlar mung'ayib turardi. Endi bo'lsa, ushbu manzil poytaxtimizning yuragiga aylanib ulgurdi.

Mamlakatimiz yetakchisi yangi-yangi olamshumul g'oyalarni ilgari surishdan, buniyodkorliklarga asos solishdan charchamaydi. Yaqinda shundoqqina Toshkent biqinida Yangi Toshkent shahrini barpo etishga start berildi va hozir u yerda buniyodkorlik ishlari jadal bajarilmoqda. Yangi Toshkentning loyiha maketini ko'rib, hayratdan yoqa ushladim.

Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqandagi Imom Buxoriy majmuasi nafaqat yurtodoshlarimizning, balki chet ellik mehmonlarning ham sevimli ziyoratgohiga aylanib, barchani hayratga oshno etmoqda. Ular bu inshootlari ijodkoriga tasanno aytmqda.

Xalqimizda "Qadimdan yaxshilik unadi" degan gap bor. Shulami esarkanman, Prezidentimizning yurgan yo'lida buniyodkorlik, obodlik unadimi deb o'ylab qolaman. Chunki qayilga borsa, hech bo'lmasa, bitta katta qurilishga tamal toshi qo'yadi-da! Mana, Andijonimizga ham keldi-yu, Yangi Andijon shahrini bunyod etish haqida topshiriq berdi. Ko'p o'tmay, mablag' ajratdi. Yana bir tashrif chog'ida esa Andijonda qad rostlagan yangi shaharga hazrati Bobur nomini berdi.

O'tgan yili "Ma'naviyat karvoni" ijodiy guruhi tarkibida Qashqadaryo viloyatida uchrashuvlarda bo'ldik. O'sha tadbirlarning birida so'zga chiqqanimda, ayni kunlarda Andijon biqinidagi taqir qirlar ustida Yangi Andijon shahri barpo etilayotgani, unda ko'plab zamonaviy ko'p qavatli uylar, dam olish joylari, oshxona va qahvaxonalari, o'yin maydonlari, infratuzilma obyektlari bo'lishini aytib berdim. Oxirida "Sizlar ham duo qiling, Prezidentimiz tezroq bu yerga tashrif buyursa, sizlarga ham bitta yangi shahar nasib qiladi", deya hazillashgan bo'ldim. Odamlar tik turib qarsak chaldil. Bu elimizning o'z yo'lbo'shchisiga cheksiz mehrdan dalolat edi.

Keyingi yillarda mahalla tizimiga alohida e'tibor qaratilib, qator muhim islohotlar o'tkazildi. Chunki mahalla jamiyatimizning yuragi. U yerda hamma bir-birini taniydi, turish-

turmushidan boxabar. Shuning uchun mahallada ishlash, muammolarni o'z vaqida hal etish osmoroq kechadi.

Bugun mahallada kam ta'minlangan oilalar, ayollar, yoshlar bilan shug'ullanuvchi alohida xodimlar mavjud. Hokim yordamchilari hamda profilaktika inspektorlarining o'ziga xos vazifalari bor. Umuman, mahallalardagi "yetitilik" muammolarni hal etish, tinchlik o'soyishtalikni saqlash, ahilik va islohotlarni amalga oshirishda ancha samarali ishlamoqda. Bu tizimda hal etilgan har bir masala hokim yordamchilari orqali viloyat hokimlari, hatto Prezidentimiz e'tiborigacha taqdim qilinmoqda. Yaqinda davlatimiz rahbari mahalla va uning yetitiligi faoliyatini takomillashtirishga bog'langan alohida yig'ilish o'tkazib, tizimga kiritiladigan yangiliklar haqida gapirdi va yangi vazifalarni belgilab berdi.

Elimiz yaxshi kunlarga, ezuq maqsadlariga hamisha ko'pchilikning duosi tufayli erishadi. "Duo bilan el ko'karadi" degan naql bejiz o'zbekona shiorga aylanmagan. Shuning isboti o'laroq, Prezidentimiz har safar Buxoroi sharifga yoki Samarqandga tashrif buyurganida ishini, eng avvalo, buyuk bobolarimiz Bahouddin Naqshband va Imom Buxoriy hazratlarining maqbaralarini ziyorat qilishdan boshlaydi. Bu go'zal an'angaga aylangan. O'tgan yili Buxoroga tashrifi chog'ida ham shayx ul-mashoyix mozorini ziyorat qildi. Meni hayajonga solgani, davlatimiz rahbarining ziyorat oxirida shaxsan o'zi duoga qo'l ochib, "Yurtimiz tinch bo'lsin!" degandir.

Bu yil ham 15 mingdan ortiq yurtodoshimiz haj safariga bordi. Ularning yuz nafari davlatimiz rahbari hisobidan hojilik maqomiga erishdi. O'sha kunlari vaqti har qancha tig'iz bo'lishiga qaramay, Prezidentimiz imkon topib, Saudiya Arabistonida hojilarimizga boshchilik qilib turgan O'zbekiston muftiysi bilan telefon orqali muloqot qildi. Suhbat bag'oyat samimi o'tib, mamlakat yetakchisi vatandoshlarimizning kayfiyati, yaratilgan shart-sharoitlar haqida so'radi va salomini yo'l'ladi.

Yoshlarimiz orasida bilimga tashnalik tobora kuchayib bormoqda. Bunga "Ma'rifat ulashib" tadbiri doirasida Namangan viloyatidagi oliy o'quv yurtlarida o'tkazgan uchrashuvlarimizda to'la amin bo'ldik. Hamrohlarimdan biri — filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborning Namangan davlat universiteti talabarlari bilan muloqoti, ayniqsa, hayajonli kechdi. Atqoli olim Hazrat Navoiyning bir baytini yodlagan hukmiga havola etib, sharhlab berishni so'radi. Zalda birdan qo'zg'alish ro'y berdi: talabalar o'z so'zlarini aytish uchun ketma-ket qo'l ko'tara boshladi. Qizig'i, sharhlar qariyb bir-birini takrorlamasdi. Bundan quvonmay bo'ladimi! Biz ham bir paytlar talaba edik, ammo mumtoz adabiyotga bu qadar mehr va ishtiyoq bilan yondashib, baytlarni sharhlay olganimizni esolmayman. Demak, Prezidentimiz tomonidan tashkil etilgan "Ma'rifat ulashib" dasturi o'zining oliy maqsadiga erishmoqda. Yoki Namangan muhandislik-texnologiya institutida boshlangan eslasam: avvalo, bizni u yerdagi obodlik, ko'kalamzorlashtirish ishlari hayratga soldi. Hammayoq turli daraxtlar, gullarga burkangan, yo'laklar sersoya, orasta. Ajabki, aniq fanlarga ixtisoslashgan texnika institutida muxtasargina "Adiblar xiyoboni" tashkil qilindi, atqoli adiblarimizning buyusti va suratlari o'rnatildi. Ko'plab adabiy-ma'rifiy tadbirlar shu yerda o'tkazilarkan.

Men ham qadam ahldanman. Demak, davlatimizning adabiyotimiz, jumladan, adiblarimizga alohida e'tibori haqida gapirmasam bo'lmaz. Poytaxtimizning qoq

markazida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi uchun barpo etilgan muhtasham bino va unga tutash Adiblar xiyoboni biz — o'zbek shoir-u yozuvchilari qalбини cheksiz faxr tuyg'usiga to'ldirayotgan bo'lsa, chet ellik mehmonlar hamda hamkasblarimizda havas uyg'otmoqda.

Bu yil Prezidentimiz farmoniga binoan san'atkorlar va adiblarining katta bir guruhi davlatimizning yuksak mukofotlari hamda unvonlari bilan taqdirlandi. O'sha tantanali yig'ilishda davlatimiz rahbari ijodkorlarga "Inson qalbining muhandislari", deb bag'oyat yuqori baho berdi.

Har yili go'zal va so'lim Zomin tog'larida yosh ijodkorlarning seminari ko'tarinki ruhda bo'lib o'tadi. Ushbu ijodiy tanlovga Prezidentimiz (u paytlari Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyati hokimi bo'lgan) va O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov tomonidan asos solingani uchun ham alohida e'tibor bilan yuqori saviyada tashkil etiladi. Iste'dodi e'tirof qilingan o'nlab yoshlarning she'riy va nasriy kitoblari uyushma homiyligida nashrdan chiqariladi. Bu esa ertangi adabiyotimizga qo'yilgan tamal toshi bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Bugun dunyo notinch, muqarrar tahlika ostida yashamoqda. Ba'zi davlatlar allaqanday puch g'oyalarni ro'kach qilib, o'zlarining harbiy qudratini ko'z-ko'z qilish bilan ovora. Ular urushni o'z nomi bilan atamay, qandaydir iboralar vositasida xaspo'shlashni odat qildi. Nobud bo'layotgan minglab insonlar, ayniqsa, bolalarning, dahshatli vayronaliklarning go'yo ularga mutlaqo aloqasi yo'qdek.

Biz esa tinch, osuda hayotga ko'nikib qolganmiz. Shuning uchun ba'zan uning qadriga yetmay ham qo'ydik. Xuddi bu munavvar turmush, halovat o'z-o'zidan bo'lib qolganidek. Axir uning zamirida qanchalar zahmatli mehnat, oqilona siyosat, uzoqni ko'zlagan tadbirlar, uyqusiz tunlar yotganini nahotki bilmasak?! Bu ezuq ishlarning barchasi davlatimiz rahbarining buyuk tafakkuri va dahosi tufayli-ku!

Hech e'tibor berganimiz: Prezidentimiz qaysi mamlakatga borsa, alohida hurmat-e'tibor bilan qabul olinadi. Ko'plab davlat rahbarlarining u bilan ko'rishganidan farqlanayotgani seziladi. Chunki ular mamlakatimiz yetakchisini buyuk islohotchi va tinchliksevar siyosatchi sifatida tan olgan. Ona O'zbekistonimiz odimlaridan osoyishtalik, halovat ufurganidek, dunyo ahli nazariida Prezidentimiz tinchlik elchisiga aylangan. Keyingi yillarda davlatimiz rahbarining xalqaro munosabatlarga ta'sir o'tkaza oladigan nomdor siyosatchilar qatoriga qo'shilganini barcha ko'rib, bilib turibdi.

Buyuk shaxslar maxsus missiyani amalga oshirish uchun tug'iladi va xalqlarini ulug' ishlarga boshlaydi. Tariximizda o'tgan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobolarimiz hayoti bunga yaqqol misol. Ularning biri buyuk saltanat tuzib, el ichra adolat o'rnatgan bo'lsa, boshqasi o'z xalqini yarim dunyoni egallagan yovuz dushmanidan himoyalab, g'anim yuragiga qo'rtuv sola olgan. Uchinchi begona yurtda olamga dong taratgan qudratli davlat barpo etgan. Bugun ularning shonu shavkati oldida barcha bosh egadi.

Nazarimda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga Ham Yaratgan tomonidan ana shunday muhim missiya yuklangan. Uning qudratli davlat qurish, o'zbek xalqini baxtiyor va boy ellar qatoriga qo'shish yo'lidagi olamshumul islohotlari shundan dalolat bermoqda. Tarixni buyuk shaxslar yaratadi, bu isbotlangan haqiqat. Prezidentimiz bu gapni ikki karra tasdiqlab, ona O'zbekistonimizning ulkan va shonli yangi tarixini yaratmoqda.





**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri  
Risolat MADIYEVA yozib oldi.**



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news

## JARANGLAB OCHILGAN

## Obod manzillar

Toshkentdan Buxoroga yo'l olgan tezyurur "Afrosiyob" poyezdi uch yarim soatda Navoiy shahriga yetib keldi. XIX asrda bu yo'lga karvonlar oylab yurgan bo'lsa kerak. Ular tunlarda yulduzlarga, kunduzlari maxsus yo'l belgilarini sifatida terilgan toshlarga qarab yo'lni belgilagan. XX asrning poyezdlari bu masofada oqshom yo'lga chiqib, tuni bilan yo'l bosib, manzilga ertalab yetib kelgan. U poyezdlarda yurganlar biladi: yo'lovchi vagonlari tor, badbo'y, o'rinarlar kir-chir bo'lardi. XXI asrning "Afrosiyob"i esa shamoldek yelib boradi, atrofnii ko'rib ulgurmaydiz. Bu — yangi O'zbekiston taraqqiyoti sur'ati va shiddatining timsoli.



Salim ASHUR,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
jurnalist

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining yo'llanmasi bilan Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari, taniqli shoir G'ayrat Majid, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Qoraqalpog'iston xalq shoiri Rustam Musurmון, filologiya fanlari doktori, professor Nurbay Jabbor va kaminadan iborat ijodiy guruh ulug' shoir nomi bilan atalgan viloyatga Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi oldidan bo'ladigan tadbir va marosimlarda ishtirok etish uchun yo'l olganmiz. Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, madaniy-ma'rifiy anjumanlar, adabiy uchrashuvlar, tantanalar "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan bosh g'oya asosida nishonlanmoqda.

Viloyat, ayniqsa, Navoiy kon-metallurgiya kombinati bilan mashhur. Bugun korxona faoliyatiga innovatsiyalar va ilmiy-amaliy yondashuvlar ichil joriy etilmoqda. Mahalliy lashtirish dasturi doirasida yangi quvvatlar uchun zarur uskuna va jihozlar kombinatning o'zida ishlab chiqarilmoqda. Dastgohsozlik, quymakorlik, mashinasozlik uchun uskuna va dastgohlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan Navoiy mashinasozlik zavodida import o'rini bosadigan mahsulotlar tayyorlanmoqda.

Navoiyning yana bir o'ziga xos jihati tabiat mo'jizasi bo'lgan Qizilqumning katta qismi shu viloyat hududiga to'g'ri keladi. Qizilqum — cho'l. Katta cho'l. Kattaligi shunchalikki, bir odam u chetidan bu chetigacha yavov bosib o'tolmaydi. Mehnatkash va zahmatkash ajdodlarimiz bu cho'lga asrlar davomida umrguzaronlik qilgan. Tuya, qo'y, yilqi boqqan. Ayron, qimiz, shubab ichib, do'mbira chertib, o'z hayoti to'g'risida dostonlar yaratgan. Bu dostonlarni tinglaganda, uzoq-yaqin ajdodlarimizning orzu-armonlari, quvonch-tashvishlari, muhabbat va nafrati qalb ko'zging oldidan tizilib o'tadi, quloqqa olib-olisdan o'ting dupuri, tualarning bo'kirishi eshitiladi.

Ijodiy safarimiz kombinatning 7-gidrometallurgiya zavodi ishchi-xizmatchilari huzurida madaniy-ma'rifiy uchrashuv bilan boshlandi. Avvalo, zavod hayoti, ishlab chiqarish quvvatlari, xodimlar uchun yaratilgan mahallal muhandis kadrlarni yetkazib berayotgani, ishlab chiqarishdagi barcha murakkab texnologik jarayonlarni asosan ana shu dorifununda ta'lim va tahsil olgan bilimdon, zukko, ixtirochi yosh mutaxassislar bajarayotgani bizni quvontirdi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati o'n minglab ishchi-xizmatchisi, mutaxassis va

muhandislari, texnika — mashinalari, minglab gektar maydon-yerlari bilan bundayroq — ixchamroq bir mamlakatga teng hududida qishda suyakni qaqshatadigan sovg'i, yozda ilikni qaynatadigan issig'i bilan — butun boro-yo'q narsa-qorasi bilan yagona vujud bo'lib, bitta tana bo'lib nafas oladi, o'n minglab yurak bir orzu, bir maqsad bilan — bitta yurak bo'lib tepadi, bitta yurak bo'lib yashaydi. Behad ulkan korxonaning narigi chetidagi ish jarayoni bilan bog'liq bir oddiy harakat uning bu chetidagi birgina mehnat hodisasi bilan uyg'un keladi. Eng chekka kondagi eng chet ekskavator kovshiga olgan tillaqumni po'lat relslarda maxsus vagonlar, vagonlarni bahaybat elaklar, elaklarni bahaybat tegirmonlar, tegirmonlarni bahaybat pechlar, pechlarni bahaybat qoliqlar kutib turadi. "Qilt" etgan bir harakat, bu hududda hatto betashvish kapalakning qanot qoqishi ham ulkan hajm va miqyosdagi ishlab chiqarish tashvishlariga mos va muvofiq keladi. Bu hududda kechadigan barcha kimyoviy, fizik, tabiiy hodisalar, jarayonlar bir-birini taqozo etadi, biri-biridan kelib chiqadi yoki birinchi bo'lmasa, keyingisi ham bo'lmaydi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati bosh direktori, O'zbekiston Qahramoni Quvondiq Sanaqulov korxonaning eng muhim xususiyati haqida bunday deydi: "Biz ayrim



o'lkalaridagi hamkasblarimizga o'xshab, zamon evrilishlaridan kelib chiqib, bir qism xodimlarni qisqartirish evaziga boshqa toifadagi xodimlarning maoshini ko'tarmadik. Bizning odamlarimiz uchun oylidan ham muhim narsa bor, bu — inson qadri. Inson qadr toqdan joydagina ratsionalizatorlik kashfiyotlari, ixtirolar bo'ladi. Shu mezon og'ishmay amal qilinsa, mehnat unumi va samarasi ham yuqori bo'ladi".

Darvoqe, 7-gidrometallurgiya zavodi ishchi-xodimlari huzurida shoirlar G'ayrat Majid, Rustam Musurmון mustaqilligimizning 35 yilligiga bag'ishlab yozilgan — siyohi qurimagam she'rlaridan o'qidi. Adabiyotshunos olim Nurbay Jabbor mutafakkir shoir Alisher Navoiy ijodining teran miqyosi hamda bugun uchun ahamiyati xususida fikr yuritdi. Uchrashuv chog'ida mamlakatimizdagi islohotlar, yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, davlat mustaqilligining tarixiy ahamiyati, milliy adabiyotimizning inson ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash singari dolzarb va muhim mavzularda aylangan suhbat qizigandan-qizidi. Tashqarida havo harorati — 40°, sovitchik — konditsioner salqinidagi suhbat harorati undan ham yuqori...

Konchilik ishini miridan-sirigacha egallagan malakali va tajribali mutaxassis-muhandislar

olamga ma'lum va mashhur Muruntov konida bizga ish jarayoni — konda tog' jinslarini qazish va tashish, zamonaviy konchilik texnikalarining bir maromda ishlashini tashkil etish bilan bog'liq murakkab ish uslubi to'g'risida gapirib berdi. Eng noyob jihati, bir zamonlar odam yursa oyog'i, qush uchsa qanoti kuygan Qizilqum bag'rida turli qimmatbaho metallar, nodir ma'danlar serob. Muruntov q'a'rida esa oltin zarralari yashiringani qadim-qadimdan ma'lum bo'lgan. Shu poyonsiz qumda Muruntovga yetib olguncha cho'l bag'ridagi necha-necha quduqdan suv ichishga to'g'ri kelgan. Bu yerda bir kaft yoki bir hovuch emas, yirik kon mavjudligini birinchi bo'lib mashhur o'zbek ma'danshunos olimi, beqiyos vatanparvar geolog Habib Abdulla aniqlagan edi.

Asrlarni qaritgan Qizilqum bag'ridagi tilla konida bugun jadal va qizg'in borayotgan ish jarayonini ko'rib, kuzatib, aql shoshadi. Kon ulkan qozonga yoki katta o'choqqa o'xshaydi. Kon tubida o'zining og'irligi 200 tonna, yuk



ko'tarish qobiliyati 250 tonna bo'lgan "BelAZ" mashinalari gugurt qutisidan sal kattaroq ko'rinadi. Ana endi konning naqadar katta, mahobatli ekanini tasavvur qilavering. Pastda ulkan ekskavatorlar na'ra tortib ishlaydi, ulkan mashinalar kuzoviga qimmatbaho ma'dan yashiringan qumni kovshlab ortadi. Mashinalar "qozon"ning chet qirg'og'i tasmedek kesib ochilgan yo'lga aylanib, vazmin yukni tepaga olib chiqadi va dastlabki ishlav beriladigan o'ringa yoki belgilangan joyga to'kib qaytadi. Uzlusiz davom etadigan bu jarayonni ko'rib, insonning aql, tafakkuri, topqirligiga tasanno aytasiz. Hazir ko'kda — koinotda, dengiz-ummonda mislsiz darajada kuchli kemalar suzib yuribdi. Konning spiralsimon "qovurg'asi"ni aylanib, tepaga chiqayotgan qudratli "BelAZ" mashinalari ham koinot kemaalaridan qolishmaydi. Farq shuki, biri fazoda, biri Yer bag'rida suzadi. Eng muhimi, shu gigant texnikalarni boshqarayotgan, ishlayotgan va qalovini topib ta'mirlayotganlarning barchasi o'zimizning qorako'z, oqko'ngil yurtdoshlarimizdir.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati Navoiy, Zarafshon, Uchquduq shaharlarini o'taligacha olgan. Mazkur shaharlardagi bunyodkorlik, obodonlashtirish, qurilish ishlarida kombinatning beg'araz ulushi mavjud. Shu jihatdan Zarafshon shahridagi Alisher Navoiy nomidagi mahalla ham zamonaviy, go'zal qiyofa

kasb etgan. Yo'l — yo'ldek, yo'lak — yo'lakdek yastanib ko'zga tashlanadi.

Gul-u gulzor, bog'-rog'lar bir-biriga qo'l uzatgan, oydin kechalarda tunchiroqlar xiyobonlarni yoritadi. Besh yil oldin ixcham, zamonaviy tipda mahalla kutubxonasi qurilgan edi. Kutubxona fondi boy, kartotekadan ma'lum bo'ldiki, uning a'zolari kam emas.

Biz yuqorida viloyat, ayniqsa, Navoiy kon-metallurgiya kombinati bilan mashhur degan edik. Viloyatning yana bir o'ziga xos jihati, bu — uning ko'p millatli eli. Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi hamda Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan Navoiy kon-metallurgiya kombinati bo'linmalarida vatanparvarlik, millatlararo totuvlik va xalqlar do'stligi g'oyalari keng targ'ib etishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'lib o'tdi. Bayram tadbirlarida shoir va yozuvchilar, olim va mutaxassislar, san'atkor va so'z ustalari ishtirok etdi. Keyingi yillarda yurtimizda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikning o'ziga xos ibratli modeli yaratilgani ushbu tadbirlarda yana bir karra o'z isbotini topdi. Ayni mavzuda so'z borganda, avvalo, bundan besh yil muqaddam davlatimiz rahbari "Xalqlar do'stligi kuni"ni belgilash to'g'risida"gi qonunni imzolaganini eslash o'rinni bo'lor edi. Shundan buyon mamlakatimizda yagona va ahil oila bo'lib yashayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillari 30-iyulni bayram sifatida nishonlab keladi. Mazkur bayram — Xalqlar do'stligi kuni xalqimizning tinchlik, do'stlik va ezigulik g'oyalari mujassam bo'lgan bog' madaniyati, urf-odat hamda an'analarni yaqqol namoyish etadi.

Uchquduq tumani madaniyat saroyida Xalqlar do'stligi kuniga bag'ishlangan "O'zbekiston — yagona Vatan!" mavzusida, "Bir uy, bir taqdir, bir oila" shiori ostida, Shimoliy kon boshqarmasi ishchi-xodimlari, harbiylar va mahalliy aholi ishtirokida do'stlik festivali o'tkazildi. Madaniyat saroyi jamoalari



tomonidan o'zbek, rus, qozoq, tatar tillarida kuy-qo'shiqlar yigradi, milliy an'analarni namoyish etildi. Shoir va tarjimonlar boshqa tillardan ona tilimizga, o'zbek tilidan boshqa tillarga qilingan tarjima asarlarini o'qib berdi. Bunday asarlar, shubhasiz, yagona O'zbekiston g'oyasi asosida yurtimizda osoyishtalik va barqarorlik, o'zaro hurmat va totuvlik muhitini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchrashuvlar, muloqotlar davom etadi. Biz ko'rmagan joylarimizni, bir-biridan g'aroyib ishlab chiqarish jarayonlarini

ko'rishga qiziqamiz. Bilimgan narsani bilishga intilish — insonga xos xususiyat. Bu borada 5-gidrometallurgiya zavodi haqidagi ma'lumot va xabarlar qiziqishlarimizni yanada kuchaytiradi.

5-gidrometallurgiya zavodini ulkan korxonaning yuragi deyish mumkin. Bu "yurak" 2017-yilda ishga tushirilgan, yuz foiz avtomatlashtirilgan, yarim tayyor mahsulot yetkazib beradi, ya'ni chiqindi suv qayta ishlanib, oltin olinadi. Zavodda hammasi mahalliy ishchi-xizmatchilar, o'zimizning muhandis olimlar. Yangi kashfiyotlar, ratsionalizatorlik ishlanmalari, ixtirolar ishlab chiqarishga hech bir to'siqsiz joriy etiladi. Shu ma'noda, qo'shimcha texnika va texnologiyalar insonga yordam beradi. Sun'iy intellekt kuchidan oqilona foydalaniladi. Zavod bosh muhandisi San'at Karomatovning aytishicha, "Texnologiya borasida O'zbekistonda boshqa bunday zamonaviy zavod yo'q".

Bizni Ishchilar shaharchasiga taklif etishdi. Toza-ozodaligi, saranjom-sarishtaligi, tartib-muhandisi San'at Karomatovning aytishicha, "Texnologiya borasida O'zbekistonda boshqa bunday zamonaviy zavod yo'q".

Safarimizning birinchi kuni 7-gidrometallurgiya zavodi ishchi-xodimlari bilan birga ularning kunlik oshxonasida tushlik qilgandik. Avvalo, ishchilarning kunlik oshxonasi bu darajada toza, ozoda, tartibli bo'lishini xayolimizga keltirmagan edik. Mana, keng-mo'l dasturxonada sut, qatiq, ho'l va quruq mevalardan sharbatlar, turli salatlar, birinchi-ikkinchi — suyuq-quyuq ovqatlar, shu yerda pishirilgan, issiqqina, bo'rsilmoq non... bari-bari juda sifatlil, to'yimli. Ba'zan katta shaharlarning eng go'zal restoranlarida ham bunday himmat-saxovat bilan qozon-kapirkidan o'tgan osh-ovqatga duch kelavermaysiz...

Fursat yetib, mana, endi Auvminzo-Amantay koni hududidamiz. Kon to'ng'arlikdan osmonga

bo'lsa-da, bir-biriga o'xshamagan savollar berib, bir-biriga o'xshamagan mulohazalar bildirdi. Shoir Rustam Musurmון xalqona ohanglarda, o'ziga xos uslubda jaranglatib "Vatanim" she'rini o'qiganda:

Kunduz quyosh, kechalari oy bergan-ey,  
Qirg' kechalab qo'noq berib, to'y bergan-ey,  
Mehmonlarga uy to'ridan joy bergan-ey,  
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,  
Ohuvva-hay, Vatanim!

satrlarini eshitib, bosh marksheyder o'rinbosari Xayrulla Abdurahimov joyida o'tirolmadi, o'rindan turib ketdi:

— Bolaligimni, qishlog'imni yodga solgan bu she'r xuddi men uchun yozilgandek yuragimni zabt etdi. Bolaligimda bobo-momalarimizdan eshitib, "ohuva-ohuva..." deb qo'shiq, terma aytib, to'lxivchidan "ot" minib, ko'cha changitib chopib yurardik. To'g'risini aytсам, shu she'rni eshitib, uyimga — Surxondaryoga borib kelgandek bo'ldim.

Nurota tumani hududida joylashgan 6-gidrometallurgiya zavodi ish boshlaganiga qariyb besh yil bo'ldi. Ushbu zavodga xomashyo Pistali konidan olib kelinadi. Konning eni — 1200 metr, uzunligi — 1800 metr, chuqurligi — 150 metr. Lekin bu hajm, bu o'lvohlar qat'iy emas. Nurota tog' tizmalari o'rganilib, kon tobora o'zlashtirilgani sari ayni ko'rsatkichlar ortib boradi. Konda gullab ishlayotgan texnikalar uncha-buncha emas, naq Olmoniyadan keltirilgan. Tan beriladigan jihati — ularning chamberagi, boshqaruv tugmachasi mahalliy sharoitda kamolga yetgan mutaxassislar qo'lida. Ular uzoqlardan kelmagan, shu qadim Nurotadagi Qizilcha, Temirgovoq qishloqlarining mehnatkash odamlari.

Nurga chulg'angan ziyoratgohi bilan yetti iqlimga ma'lum va mashhur Nurota tumanida, 6-gidrometallurgiya zavodiga tegishli hududda 115 gektar qo'riq yer o'zlashtirilib, bog' barpo etilgan. Yangi boqqa Hazrat Alisher Navoiy nomi berilgan. Mazkur bog'da har xil — qish va yozning keskin iqlimga chidamli mevali va manzarali daraxtlar o'stirilgan. Shunday katta hududdagi bog' kuchli motorli nasoslar vositasida yer ostidan chiqarilgan suv bilan tomchilatib sug'oriladi. G'azal kulkining sultoni so'zdan bog' yaratgan, so'z bog'ini yaratgan. Insonlar — yo'lovchilar, bemorlar, muhtojlar bahramand bo'lsin deb yana qancha-qancha bog'-rog'lar, xiyobonlar bunyod ettirgan. Biz hayrat ila kuzatib turgan ushbu bog' ham nimasi bilandir o'sha bog'larni eslatmaydimi?

6-gidrometallurgiya zavodining Ishchilar shaharchasida ham ishchi-xodimlarga yashash va dam olish uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan tanishdik. Shart-sharoitlarni ko'rib, "Yaxshi dam — mehnatga hamdam", degan hikmat bejiz aytilmaganiya yana bir bor ishonch hosil qildik. Ko'ngildagidek hardiq chiqargan ishchining mehnat unumdorligi yuqori bo'ladi. Unumli va samarali mehnat esa munosib rag'batlantiriladi. Kombinatt ishchi-xizmatchilari orasida faxriy unvonlar bilan taqdirlanganlar, davlat mukofotlari bilan tiydlanganlar, boshqa turli e'tiroflarga sazovor bo'lganlar ko'pligi ana shunday fidoyi mehnatning munosib natijasidir.

Ijodiy safarimiz taassurotlarga boy bo'ldi. Biz qisqa safar davomida Qizilqum — jonagon O'zbekistonimiz, yangi O'zbekistonning oltin sandig'i ekaniga yana bir karra amin bo'ldik. Bu bitmas-tuganmas xazinaning kaliti Navoiy kon-metallurgiya kombinatining aqli — o'tkir, ilmi — keskir, shijoatli, fidoyi, mehnatkash, chin vatanparvar ishchi-xizmatchilari, mutaxassis-muhandislarining qo'lida ekaniga ishonch hosil qildik. Shu bois, ushbu oltin dafna-sandiqlar jaranglab ochilib, ularning ganj-xazinasini ertangi kunimizni yanada farovon, yurtimizni yanada obod qilishga, mustaqilligimizni mustahkamlashdek qutlug' va ezigu ishga xizmat qilmoqda.

Xalqimizning til va tafakkur xazinasida "Oltin zanglamas" degan hikmat bor. Demak, yaxshi so'z, yaxshi she'r, yaxshi fikr, yaxshi odam, yaxshilik hech qachon zanglamaydi, eskirmaydi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining dehqonchiligi — zar tilla, hosili — oltin. Bu hosilni yetishtirayotganlar — zarshunoslar, oltinshunoslar.

Hosilingizga baraka bersin, ey zarshunos, oltinshunos Dehqon bobo!

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока”  
gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33  
E'lonlar bo'limi: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va  
muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan  
tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil  
chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

E-mail: info@yuz.uz  
Be6-caifr: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:  
(71) 233-56-60

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-846.  
29345 nusxada bosildi.  
O'zaro hurmat va totuvlik muhitini yanada  
mustahkamlashga xizmat qiladi.  
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov  
Musahhih: Akbar Qarshiyev  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy